

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbonova	
Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish	7
G.G'.G'affarova	
Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil.....	13
K.D.Yarashev	
Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi.....	17
A.A.Rayimov	
O'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati	21
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	25
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	30
S.S.Ulkanov	
Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari	35
T.M.Burxanov	
O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili	40
U.R.Radjapov	
Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari.....	44
Sh.A.Mamajonov	
Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir	48
F.K.Yusupova	
Talabalarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni	53
O.O.Qodirov	
O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati	58
M.M.Mamatkodiroy	
Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish	63

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	70

FALSAFA

I.A.Suvanov	
Globalashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar	76
A.N.Meliboyev	
Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari	83
G'.Z.Abduraxmonov	
G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	88
S.S.Jabborova	
O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli	93

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA TARMOG' I BO'YICHA
IXTISOSLASHUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH****СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ В ОБЛАСТИ МАЛОГО
БИЗНЕСА И ЧАСТНОЙ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ****IMPROVEMENT OF SPECIALIZATION PROCESSES IN THE FIELD OF SMALL
BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP ACTIVITY****Bozarov Xayrullo Xayitbayevich****Аннотация**

Ushbu maqolada iqtisodiy munosabatlarning jadal rivojlanishi sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmuni va mohiyatiga ixtisoslashuv yondashuvlar nazariy tadqiq etilgan. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganilgan.

Annotatsiya

В данной статье теоретически исследованы подходы к содержанию и сущности малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях развития экономических отношений. При этом изучаются основные факторы, влияющие на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства и их специализации.

Abstract

This article theoretically explores approaches to the content and essence of small business and private entrepreneurship in the context of the development of economic relations. At the same time, the main factors influencing the development of small businesses and private entrepreneurship and their specialization are studied.

Kalit so'zlar: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, bandlik, talab omillari, taklif omillari, eksternal omillar, internal omillar.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, экономический рост, занятость, факторы спроса, факторы предложения, внешние факторы, внутренние факторы.*

Key words: *small business, entrepreneurship, economic growth, employment, demand factors, supply factors, external factors, internal factors.*

KIRISH

Jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyot tajribasi iqtisodiyotda kichik biznesning ahamiyatli o'rnini va roli to'g'risidagi aniq tasavvurlarning shakllanishiga olib keldi. «Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes raqobatning rivojlanishini rag'batlantiradi, yirik kompaniyalarni yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashga «undaydi», butun iqtisodiyotning samaradorligi bevosita kichik va o'rta biznesning muvaffaqiyatli faoliyatiga bog'liq. Shunga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarning asosiy maqsadi davlat va biznesning manfaatlarini muvofiqlashtirish, tadbirkorlik faoliyati uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlash, kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat bo'lgan kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshiradi». Biroq, kichik biznes ham turli davr va sharoitlarda o'ziga xos o'zgaruvchanlik xususiyatlariga ega bo'lib, ulardan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda o'rinli foydalanish soha samaradorligining oshishiga imkon yaratadi. Shunga ko'ra, jahonning rivojlangan mamlakatlarida iqtisodiyotning har bir tarmoq va sohasidagi kichik biznes subyektlarining faoliyat xususiyatlari chuqur tadqiq etilib, ulardagi ixtisoslashuv jarayonlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirib boriladi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti juda serqirra va ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Uning tarkibida obyektiv tavsifdagi, masalan, tabiiy va mehnat resurslariga boyligi, qulay iqlimga hamda geografik joylashuvga egaligi kabi omillar ahamiyatli salmoq va ta'sir darajasiga ega. Biroq, shu bilan birga, subyektiv tavsifdagi, ya'ni, davlatning makroiqtisodiy va mintaqaviy iqtisodiy siyosati, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlarini to'liq realizatsiya qiluvchi samarali iqtisodiy mexanizmning tarkib topganligi va boshqa ko'plab omillar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan omillar tarkibiga kiruvchi muhim jihatlardan biri ixtisoslashuv jarayoni hisoblanadi. Ixtisoslashuv tushunchasi, o'z ma'nosiga ko'ra, umumiy holda subyektning o'z faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida uni ko'plab va xilma-xil jarayon yoki faoliyat obyektlaridan biriga yoki bir nechtaga yo'naltirishini anglatadi. «Ixtisoslashuv – faoliyatni nisbatan

IQTISODIYOT

qulay ishlab chiqarish shart-sharoitlariga ega bir yoki bir necha turdagi raqobatbardoshli tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirish». Odatda, ixtisoslashuv mehnat taqsimotining ta'sirida amalga oshadi.

Ixtisoslashuvning tarkib topgan mutlaq va nisbiy ustunliklarni ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi yuqori samarali ishlab chiqarishning muhim zaxirasi sifatida vujudga kelishi va qaror topishi avval boshdanoq turli-tuman tabiiy shart-sharoitlarning mavjudligi, shuningdek, ijtimoiy mehnat taqsimoti hamda uning asosida almashuv jarayonlarining paydo bo'lishi sifatidagi jamiyat taraqqiyoti xususiyatlari bilan bog'liq.

Mehnat taqsimotining ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligining o'sishidagi ahamiyatiga qadimgi mutafakkirlardan Isokrat, Platon, shuningdek, XVII–XVIII asr iqtisodchilaridan U.Petti, A.Fergyuson, J.Styuart, A.Smit va boshqalar e'tibor qaratganlar. Biroq, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning mohiyati ilk bor klassik iqtisodchi olim Adam Smitning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776) nomli asarida ilmiy jihatdan bayon etilgan. «Mehnat taqsimotining asosiy sharti bo'lib turli nuqtayi nazardan qaralishi lozim bo'lgan naf hisoblanadi: ishlab chiqaruvchi uchun – bu mehnat mahsulini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqtni tejash; iste'molchi uchun – bu mahsulot sifati va narxi. Shunday qilib, ixtisoslashuv mazkur jarayondan naf olish imkonini beruvchi mehnat taqsimotini namoyon etadi». Shuningdek, A.Smit «Mehnat taqsimotini chuqurlashtirish, demak, tegishli ravishda ixtisoslashuvni rivojlantirishning zarur sharti bo'lib ishlab chiqarishning ixtisoslashtirilgan mahsuli sotilishi (ayirboshlanishi) mumkin bo'lgan bozor hajmi hisoblanadi». Ya'ni, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning paydo bo'lishi bilan mazkur mehnatning natijalari bilan muntazam ayirboshlash zarur bo'lib, uning mavjud bo'lmashligi ixtisoslashuvning chuqurlashuvi imkoniyatlariga to'sqinlik qiladi.

Adam Smit o'z asarining birinchi bobida to'g'nog'ichlar ishlab chiqarishdagi mehnat taqsimotiga misol keltiradi. U to'g'nog'ich ishlab chiqaruvchi manufakturada bo'lganda, bu yerda 10 ta ishchi kuniga 48000 dona, yoki har bir ishchi 4800 donadan to'g'nog'ich ishlab chiqarayotganini ko'radi. Agar ishchilarning har biri alohida ishlaganda, ularning har biri 20 donadan ortiq to'g'nog'ich ishlab chiqara olmagan bo'lar edi. Bir ish kunida manufaktura ishchisi – 4800 dona, yakka hunarmand esa – atigi 20 dona. Mehnat unumdorligidagi tafovut 240 martani tashkil etadi.

Mehnat taqsimoti nafaqat bitta korxonadagi, balki yaxlit jamiyatdagi samaradorlikning oshishiga imkon yaratadi. Adam Smit ijtimoiy mehnat taqsimotining rolini qaychi ishlab chiqarish misolida ko'rsatib beradi. Qaychini ishlab chiqarishda konchi, o'tinchi, ko'mirchi, quruvchi, g'isht teruvchi, metall quyuvchi, temirchi, pichoqchi, asbob yasovchi ishtirok etadi. Mehnat taqsimoti va ayirboshlash o'zaro bog'liq. «O'z mehnatining shaxsiy iste'molidan ortiqcha bo'lgan barcha mahsulotini boshqa kishilardagi o'zi ehtiyoj sezgan mahsulotlarga ayirboshlay olish imkoniga ega bo'lgan ishonchi har bir kishini o'zini muayyan alohida mashg'ulotga bag'ishlash hamda mazkur ixtisoslashgan soha bo'yicha o'zining tabiiy iste'dodini takomilga qadar rivojlantirishga undaydi».

NATIJA VA MUHOKAMA

Mehnat taqsimoti orqali kishilarning milliy mahsulotni yaratishdagi hamkorligi amalga oshadi. Hunarmand dehqonning kiyim-kechak ishlab chiqarish borasidagi tashvishlarini o'z zimmasiga olib, bu bilan qishloq xo'jaligi mahsulotining o'sishiga imkon yaratadi, dehqon esa, hunarmandni don ekishdan ozod etib, sanoatning o'sishiga imkon yaratadi.

Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning natijasida iqtisodiyotda quyidagilar ro'y beradi:


- ishlovchilar mahoratining takomillashuvi;
- bir mehnat turidan boshqa biriga o'tishda yo'qotilishi mumkin bo'lgan vaqtning tejalishi;
- mehnatni yengillashtiruvchi va qisqartiruvchi mashinalarning ixtiro qilinishi, mehnat unumdorligining keskin o'sishi.

Ixtisoslashuv tushunchasi juda keng qamrovli bo'lib, uni alohida shaxs – ishlovchidan tortib to korxonaga, tarmoq, hudud, mintaqa va milliy iqtisodiyot darajasiga qadar qo'llash mumkin. Biroq, iqtisodiy adabiyotda ixtisoslashuv jarayoni ko'proq ishlab chiqarishga nisbatan qo'llaniladi. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi o'z navbatida turli miqyos yoki darajalarda olinishi mumkin. Masalan:

- 1) korxonaga yoki uning biron-bir tarkibiy bo'limi, uchastkasidagi ishlab chiqarish jarayonining ixtisoslashuvi;
- 2) bir xil yo'nalishdagi korxonalar majmui – tarmoq yoki soha ishlab chiqarishi ixtisoslashuvi;
- 3) muayyan hudud (mintaqa)da joylashuv jihatidan ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi.

4) tarmoq va sohalarning majmui – milliy iqtisodiyot darajasidagi ixtisoslashuv.

Iqtisodiy adabiyotlarda, odatda, sanoat ishlab chiqarishidagi ixtisoslashuvning iqtisodiy mazmuni to'g'risida kengroq ma'lumotlar berilgan. Jumladan, ularda yoritilishicha, ixtisoslashuvning uchta turi farqlanadi: buyum (predmet), detal bo'yicha va texnologik jihatdan (1.1-rasm).



1-rasm. Sanoat ishlab chiqarishda ixtisoslashuv turlari.

Ayrim manbalarda ixtisoslashuv sanoat, tarmoq, korxonaning ixtisoslashuvi kabi turlarga turkumlanadi. Ya'ni, "mehnat taqsimoti (ixtisoslashuv) sanoat, tarmoq, korxonaning ixtisoslashuvi orqali namoyon bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashuv mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlovchi fan-texnik taraqqiyotning yutuqlarini joriy etish bilan uzviy bog'liq.

Ixtisoslashuv turli shakllarda amalga oshirilib, ulardan har biri quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali aniqlanadi:

- tovar mahsulotning muayyan nomenklaturasini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvchi tarmoq va sanoat korxonalarining shakllanishi;

- tovar tayyorlashning texnologik jarayonini navbatdagi ichki ishlab chiqarish konsentratsiyasi bilan xususiy texnologik operatsiyalar uchun detaldan tortib to agregatgacha ishlab chiqarishni tabaqalashtirish;

- muayyan texnologik operatsiyalarni bajarish bilan bog'liq yangi ishlab chiqarishlarni yaratish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ixtisoslashuv jarayoniga berilgan ta'riflar xilma-xil bo'lib, uning mazmunini to'liq bayon etish uchun mazkur ta'riflarni ulardagi asosiy yondashuvlar bo'yicha muayyan tizimga solish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval

Ixtisoslashuv tushunchasiga berilgan ta'riflarning asosiy yondashuvlari bo'yicha tizimlashtirilishi

Yondashuvlar	Ta'riflar
Ijtimoiy mehnat taqsimoti shakli sifatida yondashuv	keng ma'noda – ijtimoiy mehnat taqsimoti shakli, mahsulot alohida turlari yoki uning alohida qismlarini ishlab chiqarishning mustaqil tarmoqlar, ishlab chiqarish, ixtisoslashgan korxonalarda joylashuvi. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishi, uning sifatini oshishi, mehnat unumdorligining o'sishiga imkon yaratadi.
Mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish konsentratsiyasi ifodasi sifatida yondashuv	ijtimoiy mehnat taqsimoti va uni oqilona tashkil etish shakli. Mahsulot alohida turlari yoki uning alohida qismlarini ishlab chiqarishning mustaqil tarmoqlar, ishlab chiqarish, ixtisoslashgan korxonalarda joylashuvini ifodalaydi.
	mehnat taqsimotiga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish shakli. Ixtisoslashgan sex, uchastka, yaxlit korxonalarni barpo etish orqali namoyon bo'lib, predmet, detallar, texnologiyalar bo'yicha guruhlanishi mumkin.
	mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish faoliyatining konsentratsiyasi orqali ifodalanuvchi iqtisodiy jihatdan asoslangan shakl. U mahsulot muayyan nomenklaturasining

IQTISODIYOT

<p>Ishlab chiqarishning ixtisoslashgan korxonalarida konsentratsiyalashuvi yondashuv</p> <p>Faoliyatning tor doiradagi tovarlar ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi sifatida yondashuv</p>	<p>ommaviy ravishda va yirik seriyali ishlab chiqarishiga yoki muayyan texnologik operatsiyalarni bajarishga yo'naltirilgan.</p> <p>ishlab chiqarishning ommaviyligi va potokliligini oshirish orqali ishlab chiqarishning samaradorligi va mehnat unumdorligining o'sishiga olib keluvchi bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishning ixtisoslashgan korxonalarida konsentratsiyalashuvi.</p> <p>kompaniya asosiy faoliyatining mahsulot, tovarlar va xizmatning tor doirasini ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi.</p>
--	--


Yuqoridagi ta'riflarning tizimli tahlili asosida, fikrimizcha, iqtisodiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan quyidagi mualliflik ta'rifining shakllantirilishi maqsadga muvofiq: "Ixtisoslashuv – xo'jalik yuritishning turli subyektlari tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etishning tegishli darajasida ko'proq iqtisodiy naf keltiruvchi faoliyat turi yoki uning muayyan qismi bilan shug'ullanishga yo'naltirilgan jarayon".

Shuningdek, ixtisoslashuvning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini quyidagi holatlar orqali ifodalaydi:

1) ixtisoslashuv mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari o'sish sur'atiga nisbatan uning hajmining yuqoriroq o'sish sur'atini taqozo etuvchi ishlab chiqarishning ijobiy miqyos samarasiga erishish uchun imkoniyatlarni ochib beradi;

2) ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish mazkur jarayonga fan, texnika va texnologiyaning ilg'or yutuqlarini joriy etish uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qiladi. Qimmatbaho ixtisoslashtirilgan yuqori unumli texnikani qo'llash faqat undan to'liq foydalanish sharoitida o'zini oqlash mumkin. Bu bir vaqtning o'zida ko'p miqdordagi tarmoqlarni rivojlantiruvchi xo'jaliklarda emas, balki aynan texnikaning qiymati amortizatsiya ajratmasi shaklida ahamiyatli darajadagi katta hajmga ega bo'lgan bir turdagi qishloq xo'jalik mahsulotiga bir tekisda o'tkaziluvchi ixtisoslashgan xo'jaliklarda imkon doirasida bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining chuqurlashishi orqali ishlab chiqarish ijtimoiyligi tavsifining kuchayishi namoyon bo'ladi. Fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish miqyoslarining o'sishi – ixtisoslashuv chuqurlashishining muhim omili hisoblanadi. Umuman olganda, ishlab chiqarish ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin.



2-rasm. Ishlab chiqarish ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi ham moddiy, ham nomoddiy ishlab chiqarish soha va tarmoqlari uchun xususiyatli hisoblanadi. Sanoatda ixtisoslashuv nisbatan rivojlangan hisoblanadi. Tarmoqlarning ixtisoslashuvi har bir tarmoq ichidagi korxonalarining tuzilishi va texnologiyasi jihatidan bir xil mahsulot tayyorlashga ixtisoslashuvi orqali to'ldiriladi. Sanoatning alohida, mustaqil tarmoqlari sonining ko'payishi nafaqat har xil turdagi tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, balki tayyor mahsulotlarning alohida detallari va qismlari, ularni tayyorlash texnologik jarayonlarining alohida operatsiyalarining alohidalashuvi natijasida ro'y beradi.

Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining rivojlanishi ishlab chiqarishni jadal o'stirish va takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Yuqori unumdorli ixtisoslashtirilgan asbob-uskunalar, ilg'or texnologiya va ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning ilg'or shakllarini qo'llovchi yirik seriyali va ommaviy bir turdagi mahsulotni ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan

korxonalarining iqtisodiy ustunligi mehnat qurollari va moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash, xodimlarning mehnat unumdorligi va malakasini oshirish, tannarxni pasaytirish va rentabellikni o'stirish, kapital qo'yilmalarni tejash orqali namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy samaradorlikni ahamiyatli darajada oshirish bilan tarmoqlararo ishlab chiqarishni yiriklashtirish va ixtisoslashtirish birga boradi. Ixtisoslashgan korxonalarda ishlab chiqarishning o'rtacha tannarxi ixtisoslashmagan korxonalariga qaraganda past hisoblanadi: 1 t cho'yan quyish 40-60 foizga, 1 t to'qima va shtampovkalar 30-40 foizga past bo'ladi.

Biroq, sanoatning u yoki bu tarmog'idagi korxonalarni haddan tashqari ixtisoslashtirib yuborilganda, ushbu korxonalarining har biridagi tayyor mahsulotni yetkazib berish chegaralari kengayib, uni iste'molchiga tashish bo'yicha masofa hamda transport xarajatlari ortadi, bu esa mahsulot tannarxini oshiradi.

Yirik tarmoqlar (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va h.k.) nisbatan mayda ixtisoslashgan tarmoqlarga bo'linadi. Buni sanoat tarmog'i misolida nisbatan aniqroq ifodalash mumkin. U, xususan, ixtisoslashgan tarmoqlarning ikkita katta guruhiga bo'linadi: undirma va qayta ishlovchi sanoat. O'z navbatida, qayta ishlash sanoati yengil, oziq-ovqat, og'ir sanoat va h.k.larga bo'linadi.

Turli sabablarga ko'ra korxonalarining ixtisoslashuvi doimo ham tarmoqning ma'muriy tuzilmasi va asosiy ixtisoslashuviga mos kelavermaydi. Masalan, ko'plab mashinasozlikka mansub bo'lmagan (metallurgiya, ko'mir va neft qazib oluvchi) tarmoqlarda mashina va asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, ularni ta'mirlash bo'yicha yirik sex va zavodlar, uchastkalar mavjud bo'ladi. Shu bilan bir qatorda mashinasozlikda metallurgiya va kimyo korxonalari, elektr stansiyalari, transport bo'linmalari va boshqalar mavjud bo'ladi.

Shunga ko'ra, iqtisodiyotda korxonaning tarmoq jihatdan mansubligini aniqlashning ikki turi – ma'muriy-tashkiliy va mahsulot belgilaridan foydalaniladi.

Ma'muriy-tashkiliy belgisidan foydalanishda faoliyatning asosiy tanlangan (hujjatda rasmiylashtirilgan) turi, shuningdek, u yoki bu idora va firma (xolding, konsern)ga mansubligi hisobga olinadi.

Mahsulot belgisiga muvofiq ravishda har bir sof (alohida) tarmoq bo'yicha tarkibiy tuzilma va ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi. Zamonaviy korxonalarining ommaviy ravishda diversifikatsiyalashuvi munosabati bilan mazkur belgi, qoida tariqasida, tasniflash uchun yagona yondashuv bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlarda ixtisoslashuv jarayoni ma'lum darajaga ega ekanligi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuv darajasi uning turli shakl va turli-tuman birikmalari uchun quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanishi qayd etilgan:

1. Ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning tarmoq mahsulot ishlab chiqarishining umumiy hajmidagi solishtirma salmog'i:

$$y_c = \frac{\Pi_c}{\Pi_o} \times 100\%$$

2. Ixtisoslashgan korxonalarining tarmoq korxonalari umumiy sonidagi solishtirma salmog'i:

$$y_c = \frac{O_c}{O_o} \times 100\%$$

3. Tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari soni.

4. Texnologik jihatdan bir turdagi mahsulotlar guruhining ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi va soni.

5. Ixtisoslashgan asbob-uskunalarining mashinalar umumiy parkidagi solishtirma salmog'i.

XULOSA

Kichik biznes subyektlarining ixtisoslashuvi quyidagi bir qator yo'nalishlar bo'yicha ro'y beradi.

1. Tarmoqdagi yirik korxonalar uchun ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan jarayonlarni amalga oshirish, mahsulot yoki uning butlovchi qismlarini ishlab chiqarish.

2. Tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda, undagi ishlab chiqarish jarayonining yaxlitligi va uzluksizligini ta'minlovchi ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish.

IQTISODIYOT

3. Tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda, aksariyat hollarda undagi ishlab chiqarish ko'lamining u qadar katta miqiyos talab etmasligi (masalan, qishloq xo'jaligi, chakana savdo, xizmat ko'rsatish va h.k.) sababli tarmoqdagi asosiy ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini tashkil etish.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, ixtisoslashuv jarayoni alohida korxonalar va tashkilotlarning faoliyat samaradorligini ta'minlash orqali milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, xo'jalik yuritishning turli darajalarida ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda turli ko'rinishdagi ixtisoslashuv jarayonlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пискун Е.И., Брусникин К.Н. Развитие предпринимательских структур в современных условиях экономики России: тенденции и факторы влияния // Сервис в России и за рубежом. 2019. Т. 13. Вып. 2. С. 54-68. DOI: 10.24411/1995-042X-201910206; Стратегии развития предпринимательства в современных условиях: сборник научных трудов ИВ национальной (с международным участием) научно-практической конференции. Санкт-Петербург 23–24 января 2020 г. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2020. – 391 с.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 26 апрелдаги “Оилавий тадбиркорлик тўғрисида”ги ЎРҚ-683-сон қонуни.

3. Лино Маркес Коимбра. Теоретико-методологические основы предпринимательства и его значение в развитии экономики Мозамбика // Вестник ТГУ, выпуск 3 (143), 2015.

4. Шумпетер Й. Теория экономического развития [Электронный ресурс]. М.: ДиректмедиаПабблишинг, 2008.